

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845492>

GLOBALLASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Isankulova Muxlisa

To'raqulova Zumrad

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Maktab menejmenti yo'nalishi 822-20-guruh talabalari.

ANNOTATSIYA

Maqolada globallashuvning asosiy tushunchalari, kommunikatsiya va "Globallashuv"ning o'zgaruvchanligi va o'zgarishlari haqida ma'lumot berilgan. Globallashuv, jahon xo'jaligining rivojlanishi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilmfan texnika texnologiya yutuqlarini tezlash, davlatlararo ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga ko'maklashuv bilan tasdiqlangan. Globallashuvning asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, turli mamlakatlarning madaniyatining qo'shilishi va yaqinlashuvidir. Globallashuvning maqsadi, jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega bo'lishidir..

Kalit so'zlar: *globallashuv, nazariy asoslar, o'zgarishlar, kommunikatsiya, masofaviylik, globalizatsiya, iqtisodiy faoliyat, integratsiya, davlatlararo tartib, iqtisodiy imkoniyatlar, sotsial taraqqiyot, madaniy taraqqiyot, kommunikatsiya sohasi.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация об основных понятиях глобализации, коммуникации, а также об изменчивости и изменениях понятия «глобализация». Это подтверждается глобализацией, развитием мировой экономики, привлечением иностранных инвестиций, ускорением достижений науки и техники, содействием межгосударственному научно-техническому развитию. Основными чертами глобализации являются международное разделение труда, свободное движение капитала, рабочей силы и ресурсов, стандартизация законодательства, экономических и технологических процессов, интеграция и

сближение культур разных стран. Цель глобализации – иметь системный характер, охватывающий все сферы жизни общества.

***Ключевые слова:** глобализация, теоретические основы, изменения, связь, расстояние, специфические тарифы, экономическая деятельность, интеграция, межгосударственный порядок, экономические возможности, социальное развитие, культурное развитие, сфера связи.*

ANNOTATION

The article provides information on the main concepts of globalization, communication and the variability and changes of "Globalization". It is confirmed by globalization, development of world economy, attraction of foreign investments, acceleration of science and technology achievements, assistance to interstate scientific and technical development. The main features of globalization are the international division of labor, the free movement of capital, labor and resources, standardization of legislation, economic and technological processes, integration and convergence of cultures of different countries. The goal of globalization is to have a systemic nature that covers all areas of society.

***Key words:** globalization, theoretical foundations, changes, communication, distance, specific tariffs, economic activity, integration, interstate order, economic opportunities, social development, cultural development, communication sphere.*

KIRISH: Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha “glob” soʻzidan olingan boʻlib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lugʻaviy maʼnosi nuqtai nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”-Yer shari” maʼnolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki maʼnoda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bogʻliq boʻlgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini oʻziga qamrab oladi. Globallashuv atamasi birinchi bor 1960-yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985-yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi boʻlib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981-yildan beri qoʻllanilib kelingan. Ammo bu soʻzning toʻliq maʼnosi, konsepsiyasi 1990-

yilning yarmida amerikalik olim Charlz Taz Rassel tomonidan to‘liq ochib berilgan. “Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983-yili «Garvard biznes rev’yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo‘llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. Mazkur ta’rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e’tibor berilgan. O‘z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma’nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi” - deb yozgan edi. Ayni shu ma’noda dastlab biz “globallashuv” tushunchasining istilohiy ma’nosini izohlashga harakat qilamiz. Bu so‘zga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xo‘jaligi rivojlanishining ob’ektiv jarayoni bo‘lib, juda ko‘p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo‘jaligining o‘zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm – fan texnika texnologiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko‘maklashuv bilan tasdiqlanadi. Globallashuv — butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir.

Asosiy qism

Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurrallashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyorida xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma’nosi nuqtai nazaridan frantsuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”-Yer shari” ma’nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma’noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi. Globallashuv atamasi birinchi bor 1960-yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985 - yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi bo‘lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981-yildan beri qo‘llanilib kelingan. Ammo bu so‘zning to‘liq ma’nosi, konsepsiyasi 1990-

yilning yarmida amerikalik olim CHARLZ Taz Rassel tomonidan to‘liq ochib berilgan. “Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983-yili «Garvard biznes rev’yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo‘llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan⁴[1]. Mazkur ta’rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e’tibor berilgan. O‘z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma’nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi” - deb yozgan edi. Ayni shu ma’noda dastlab biz “globallashuv” tushunchasining istilohiy ma’nosini izohlashga harakat qilamiz. Bu so‘zga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xo‘jaligi rivojlanishining ob’ektiv jarayoni bo‘lib, juda ko‘p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo‘jaligining o‘zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm – fan texnika texnologiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko‘maklashuv bilan tasdiqlanadi. Globallashuv — butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo‘shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob’ektiv jarayon bo‘lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud bo‘lib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb e’tirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Green, AntiDaos kabi bir necha antiglobalistlarni kiritish mumkin. Globallashuv bosqichiga mintaqalashuv bosqichini bosib o‘tish lozim. Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.CHumakov “Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarining, ma’naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo‘nalishlarini universallashtirishga olib kelishi bilan birga, an’anaviylik, o‘ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni istisno qilmaydi”¹ , - degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishga majburdir. Inson yashayotgan zaminining, tinch va barqaror

kechirayotgan hayotining mohiyatini to'la anglashi, qadrlashi, ya'ni ijtimoiy muhitning obyekt sifatida namoyon bo'lishi kerak. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablari xususida I.Karimov ta'kidlaganlaridek "...shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas".

Global miqyosdagi muammolar ilmiy munozaralar predmeti sifatida XX asrning 60-70-yillarida jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg'otgan. 1930-yillarda E.Lerua, Teyyar de SHarden va V.I.Vernadskiylarning nazariyalarida insoniyat hamjamiyatning global mohiyati va uning Erdagi yashash tarixi uchun mas'uldir, degan fikrlar ilgari surilgan. Keyinchalik bu masalaga e'tibor bir muncha susaygani tashlanadi. 1970-80-yillarga kelib mazkur masalaga oid tadqiqotlar jonlanganligi bizga ma'lum. Bugungi kunda globallashuv jaryonining jadallashuvi o'zaro aloqadorlik va o'zaro ta'sir dialektikasi qonunlari asosida ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmoqdaki, bu o'z navbatida yoshlardagi ijtimoiy mas'ullik jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika-texnologiya, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivoji bilan o'zaro aloqadorlikda yuzaga keladi. Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda davlatning raqobat shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqbolidagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq. Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim sohasida jahonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu borada alohida ahamiyat kasb etadigan siyosiy globallashuv davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o'rtasidagi siyosiy aloqalarning kengayishini, o'zaro bog'liqligini ifodalaydi va oxir-

oqibat, ularning unifikatsiyalashuviga olib keladi. Bunda o'ziga xos siyosiy munosabatlar ko'lamiga ko'ra global va barcha davlatlarning ichki tuzilishi bir tarmoqqa ulanib ketishi kuzatiladi.

Xulosa va takliflar;

Ma'lumotlarni kuzatish natijasida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkinki "Globallashuv" mavzusida ma'lumotlar berilgan. Globallashuv, jahon miqyosidagi rivojlanish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm-fan va texnologiya yutuqlarini tezlashtirish bilan bog'liqdir. Bu rivojlanishda xalqaro mehnat, kapital, ishchi kuchi va resurslar erkin harakat qiladi. Globallashuvning maqsadi jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega bo'lishdir. Umuman olganda, maqolada globallashuvning jahon miqyosidagi rivojlanish va davlatlararo munosabatlarning kengayishi, unifikatsiyalashuv va madaniy xilma-xillikni saqlashga oid muammolar haqida ma'lumotlar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 28.01.2022 yildagi PF-60- son.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., O'zbekiston., 2016*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom etgirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T: O'zbekiston.2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T: O'zbekiston.2018.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil*
6. *Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.*
7. *Tashmetov T. X. "Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning tarbiyadagi ahamiyati". "Science and Education" Scientific Journal, 1(7), 2020. 617-624.*
8. *Tashmetov, T. X. "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta'limtarbiyaning o'rni". Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 2021.*